

**Muallif:** Namangan viloyat Mingbuloq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 – umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi  
**Qaxorova Gulchexra**

## 10-sinf

### I-chorak test savollari

#### 1. Irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlar qonuni qaysi metod yordamida kashf etilgan?

- A. Kuzatish metodi  
B. Taqqoslash metodi  
C. Tarixiy metod  
D. Eksperimental metod

#### 2. Hayotning biogeosenoz darajasiga ta'rif bering?

- A. Ekosistemalar strukturasi, biotik munosabatlar, oziq zanjiri, trofik darajalar kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi  
B. Populyatsiya zichligi, individlar soni, ko'payish tezligi, yashovchanlik, jinsiy va yosh bilan bog'liq tarkibi kabi belgilar bilan ta'riflanadi  
C. Moddalar va energiya almashinuvi, ta'sirlanish, o'sish, rivojlanish, ko'payish, hayotiy jarayonlarning nerv-gumoral boshqarilishi kabi xususiyatlarni o'rganadi  
D. Moddalar va energiyaning global davriy aylanishi, insonning xo'jalik va madaniy faoliyati kabi jarayonlar kuzatiladi

#### 3. Organik birikmalar tarkibidagi makroelementlardan biri S qanday vazifani bajaradi?

- A. Energiyaning bir turdan boshqa turga o'tishida ishtirok etadi  
B. Nerv impulslarini o'tkazishda va hujayraning osmotik bosimini ta'minlaydi  
C. Oqsillarning uchlamchi strukturasi disulfid bog' hosil qiladi  
D. Umurtqasiz hayvonlar qonidagi gemosianin tarkibida kislorod tashish funksiyasini bajaradi

#### 4. Gidrofil ( I ) va Gidrofob ( II ) moddalarni juftlang?

a→kraxmal, b→spirtlar, c→disaxarid, d→kletchatka, e→lipid, f→aminokislota;

- A. I- a, b, c    II- d, e, f  
B. I- b, d, f    II- a, c, e  
C. I- b, c, f    II- a, d, e  
D. I- b, c, d    II- a, f, e

#### 5. Organizmda kechadigan ko'pchilik jarayonlar uchun energiya manbai bu...?

- A. Glitseraldegid  
B. Glukoza  
C. Maltoza  
D. Fruktaza

#### 6. O'simliklar barg to'qimasi va yog'ochligining necha %i sellulozadan iborat?

- A. Barg to'qimasi 12-25%, yog'ochlik 55%  
B. Barg to'qimasi 15-40%, yog'ochlik 58%  
C. Barg to'qimasi 15-30%, yog'ochlik 50%  
D. Barg to'qimasi 10-20%, yog'ochlik 60%

#### 7. Neytral yog'lar -.....?

- A. Lipidlarning oqsillar bilan hosil qilgan birikmasi  
B. Yog' kislotalar va ko'p atomli spirtlarning birikishidan hosil bo'ladi  
C. Lipidlarning uglevodlar bilan hosil qilgan birikmasi  
D. 3ta yog' kislota va glitserinning birikishidan hosil qilgan birikmasi

#### 8. Uchlamchi tuzilishga ega bo'lgan oqsil molekulasini toping?

- A. Insulin  
B. Mioglobin  
C. Gemoglobin  
D. Kollagen

#### 9. Transport RNK(t-RNK) hujayraning qaysi qismida hosil bo'ladi va aminokislotalarni biriktirib ribosomaning polipeptid zanjiri yig'iladigan joyga-ribosomaga yetkazadi?

- A. Sitoplazma  
B. Yadro  
C. Xloroplast  
D. Mitoxondriya

**10. Hujayrasiz hayot yo'qligi, hujayra faqat avval mavjud hujayraning bo'linishidan paydo bo'lishi, hujayraning asosiy struktura elementi protoplazmasi bilan yadrosi ekanligini isbotlagan olimni aniqlang?**

- A. Karl Ber  
C. Mattias Shleyden
- B. Teodor Shvann  
D. Rudolf Virxov

**11. Yarim integral oqsil qaysi hujayra organoidining tarkibiy qismiga kiradi?**

- A. Silliqlik endoplazmatik to'ra  
C. Plazmatik membrana
- B. Donador endoplazmatik to'ra  
D. Ribosoma

**12. Zahira modda hisoblangan-polifosfatlar qaysi tirik organizmlar hujayrasida to'planadi?**

- A. Zamburug'lar  
C. Hayvonlar
- B. O'simliklar  
D. Bakteriyalar

**13. Monosaxarid va disaxaridlarni hosil qilishda qaysi hujayra organoidi ishtirok etadi?**

- A. Leykoplast  
C. Xromoplast
- B. Xloroplast  
D. Sitoplazma

**14. Energetik almashinuv jarayonining qaysi bosqichi amilaza, pepsin, lipaza fermentlari ishtirokida kechadi?**

- A. Tayyorgarlik bosqichi  
C. Kislorodli bosqich
- B. Kislorodsiz bosqich  
D. Glikoliz

**15. Fotosintezning qorong'ilik bosqichi xloroplastlarning qaysi qismida amalga oshadi?**

- A. Stromada  
C. Tilokoidlarda
- B. Granalarda  
D. Ichki membranada

**16. "Xromasoma" atamasini fanga kim kiritgan?**

- A. Fleming  
C. Valdeyer
- B. Strasburger  
D. S.N. Vinogradskiy

**17. "Genetik kod" qaysi olimlar tomonidan aniqlangan?**

- A. T. Morgan, S.N. Vinogradskiy  
C. U. Betson, R. Pennet
- B. Teodor Shvann, Mattias Shleyden.  
D. M. Nirenberg, S. Ochoa.

**18. Transkripsiya qanday jarayon?**

- A. Aminokislotalar izchilligi to'g'risidagi axborot DNKdan i-RNKga ko'chirilishi  
B. Irsiy axborotni i-RNK tilidan aminokislotalar tiliga tarjima qilish  
C. Induksiya davrida profagning bakteriya genomidan biror genni olib chiqib ketish  
D. Bir juftga mansub xromosomalarning yopishib, yonma-yon joylashishi

**19. Telofazada qanday jarayon sodir bo'ladi?**

- A. Xromosomalardagi sentromeralar bo'linib, yakka holatdagi xromatidalar bo'linish urchug'ining qisqarishi hisobiga qutblarga tarqaladi  
B. Xromasoma iplarining yoyilishi, ingichkalashishi, uzayishi kuzatiladi  
C. Xromatinlarning spirallashuv hisobiga yo'g'onlashishi va kaltalashishi kuzatiladi  
D. Xromatidalar sentromerasi ekvator tekisligida joylashadi

**20. Meyozning ekvatsion bo'linishida qanday jarayon sodir bo'ladi?**

- A. Xromasomalar soni ikki marta kamayadi  
B. Gomologik xromosomalarning o'xshash qismlarining chalkashuvi oqibatida xromatidalarining ayrim qismlari almashinadi  
C. Gaploid xromosomal hujayralar hosil bo'ladi  
D. Xromasomalar ikki xissa ortadi

**Test javoblari**

<b>Savol</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>13</b>	<b>14</b>	<b>15</b>	<b>16</b>	<b>17</b>	<b>18</b>	<b>19</b>	<b>20</b>
<b>Javob</b>	B	A	C	C	D	C	D	B	B	D	C	D	A	A	A	C	D	A	B	C